

BUXORONING IKKI FARZANDI HAQIDA MULOHAZALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7383200>

U.S.Amonov,

BuxDPI dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

M.Z.Eshonqulova,

BuxDPI magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurauf Fitrat hamda Oxunjon Safarovning serqirra ijodi, ularning adabiyot va folklor yo'naliishiga qo'shgan ulkan hissasi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: folklor, folklorshunoslik, folklor tarixi, manbashunoslik, matnshunoslik, doston, ertak, masal, maqol, qo'shiq, xalq teatri.

Tom ma'noda ustoz Oxunjon Safarovning ilmiy-ijodiy faoliyatida o'zbek folklorshunosligining darg'asi Hodi Zarif hamda uning shogirdi atoqli folklorshunos olim To'ra Mirzayevning juda katta ta'siri bor. Xuddi shunday Abdurauf Fitrat kabi qomusiy shaxsning ham ta'siri yo'q emas. Ustoz fitratshunoslarning har bir chiqishini, fikrini alohida kuzatib borar, ularning, xususan, Hamidulla Boltaboyevning ishlarini yuksak qadrlar edi.

Abdurauf Fitrat hamda Oxunjon Safarovlar yurtning, millatning taqdiriga, ilm-faniga, o'tmishi hamda kelajagiga befarq insonlar emas edi, shuning uchun ularning serqirra faoliyatida mushtarak qirralar ko'p. Fikrimizning dalili sifatida bir-ikki qiyosni keltirsak.

– Avvalo, Fitrat so'z san'atkori sifatida erk, mustaqillik g'oyalari bilan yo'g'rilgan lirik, drammatik hamda epik asarlar yaratgan bo'lsa, O.Safarov kattalar va bolalar uchun birdek ijod qilgan shoirdir;

– Fitrat boshlan'gich hamda oliy o'quv yurtlari muallim va toliblari uchun bizga ma'lum bo'lgan "O'quv" (1917-yil. Boku.) "Adabiyot qoidalari" (qo'llanma 1926), "Eng eski turk adabiyoti namunalari" (Majmua. 1927-yil. Samarqand - Toshkent), "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Birinchi kitob: Sarf" (1924 - 1930), "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Ikkinci kitob: Nahv" (1924-, 1927-yillar. Samarqand - Toshkent) kabi darslik, ilmiy qo'llanmalarni yaratgan. Xuddi shunday O.Safarov ham yakka hamda hammualliflikda 9 ta o'quv qo'llanma hamda darslik yaratgan. Masalan, O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi (Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti

studentlari uchun darslik. Toshkent: "O'qituvchi", 1990. T.Mirzayev, K.Imomov, B.Sarimsoqovlar bilan hamkorlikda), O'zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori (Madaniyat va san'at kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent: "O'qituvchi", 2007. D.O'rareva, M.Qurbanova bilan hamkorlikda), O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi (O'quv qo'llanma. Toshkent: "Aloqachi", 2008. T.Mirzayev, D.O'rarevalar bilan hamkorlikda), O'zbek xalq og'zaki ijodi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti bakalavrлari uchun darslik. Toshkent, 2010.) .

- Abdurauf Fitrat hamda Oxunjon Safarovlarning har ikkisi adabiyotshunos hamda muarrix olimdir.
- A.Fitrat ham O.Safarovlar ham publisist sifatida ommabop maqolalarida ilmiy, ijtimoiy mavzuga oid dolzarb masalalarga munosabat bildirishgan jonkuyar insonlardir.
- Abdurauf Fitrat "Chig'atoy gurungi" ning tashkilotchilaridan biri sifatida yosh ijodkorlarni xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plashga da'vat etadi, o'zi esa "Eng eski turk adabiyoti namunalri" hamda bir qator asarlarida noshir sifatida ham namoyon bo'ladi. Tabiiyki, keng ilm jamoatchiligidagi Oxunjon Safarov xalq og'zaki ijodi namunalrini to'plovchisi, noshiri hamda fundamental tadqiqotchisi sifatida tanilgan hassos olimdir.
- Fitrat "Adabiyot qoidalari" qo'llanmasida adabiyotshunoslikning ko'p masalalariga oid dastlabki ilmiy qarashlarini bayon etganki, keyinchalik uning qarashlari zamonaviy o'zbek adabiyot nazariyasi fanning asosi bo'la oldi. Ushu qo'llanmaning "El adabiyoti" deb nomlangan bo'limida El adabiyoti - Xalq og'zaki ijodi faniga hamda uning bir qator janr (ashula, ertak, doston, lapar, topishmoq kabi)lari haqida mulohaza yuritgan. O.Safarov "O'zbek bolalar poetik folklorining janriy tarkibi va badiiyati" mavzusidagi doktorlik dissertasiyasida Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi V.M.Gastak ("Ittifoq xalqlari folklorshunosligi doirasida bu sohada yaratilgan birinchi va yagona"), folklorshunos olim Q.Maqsetov ("butun bir kashfiyot"), ustozi professor T.Mirzayev ("Bolalar folklorini yaxlit tizim tarzida o'rganish namunasi")larning e'tirofiga ko'ra o'zbek bolalar folkloriga tegishli 24 ta janrni farqlab asoslab berdi.

Albatta, Buxoroning har ikkala farzandining asrlarga tatigulik ilmiy faoliyatidagi mushtark qirralarni yana davom ettirish mumkin.

Mustaqillikning sharofati bilan qatag'onga uchraganlar qatori Fitrat nomi oqlandi. Fitratshunos olimlar tanildi. Ularning sa'y-harakati bilan

Abdurauf Fitratning turli “puchmoq”larda sochilib yotgan ilmiy, badiiy merosi qaytaridi va qaytarilayapti.

Oxunjon Safarov ham Abdurauf Fitratning nomi va ijodiy merosini xalqqa qaytarish yo’lida ozgina xizmat qildi desak, mubolag’ a bo’lmaydi. Fikrimizning dalili sifatida domlaning yillar davomida e’lon qilingan ishlarini keltiramiz.

“Fidoyi” (A.Fitratning Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotiga tavsiya etilishi munosabati bilan). “Sovet O’zbekistoni” gazetasi, 1991-yil 6-iyul (T.Ahmad va G.Murodovlar bilan hamkorlikda).

Vatan dardida yonib (Fitratning bir she’riy matni xususida mulohazalar). “Buxoro haqiqati” gazetasi, 1998-yil, 28-mart.

Qorga aylangan dardlar yoxud Fitratning shu nomdagagi she’ri xususida. “Xalq so’zi” gazetasi, 1999-yil, 17-iyun.

Abdurauf Fitratning yana bir noma’lum she’ri. “Buxoronomo” gazetasi, 2001-yil, 22-avgust.

Abdurauf Fitratning yana bir noma’lum she’ri. “Buxoro mavjulari” jurnali, 2004-yil, 3-son, 6-bet.

Fitrat va Buxoroning shoshmaqomi. “O’zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2006-yil, 21-aprel (F.To’rayev bilan hamkorlikda).

A.Fitrat va milliy musiqiy meros. Kitobda: Buxoroi donishafzo. Ilmiy maqolalar to’plami. Buxoro, 2006-yil. 3-5-betlar (F.To’rayev bilan hamkorlikda).

Fitratning J.Boybo’latovga ochiq xatiga doir mulohazalar. Alloma adabiyotshunos. “Mutafakkirlar merosi” seriyasi. 1-kitob. 2006-yilning 12-dekabrida Buxoro shahrida Abdurauf Fitrat tavalludining 120 yilligi munosabati bilan o’tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: “Fan”, 2006. 10-13-betlar.

Qolaversa, Oxunjon Safarov turli risolalarida Abdurauf Fitratga kitobning maqsad, mazmuni doirasida murojaat qilib, uning serqirra faoliyatini keng ilm ahliga yetkazishga intilgan. Masalan, “Shashmaqom vatani ohanglari” (Toshkent: “Fan”, 2009.) monografiyasida Abdurauf Fitrat - “Buxoro shashmaqomi”ni notaga yozib olinishining ilk tashabbuskori va tshkilotchisi bo’lganligi, bunga uning musiqiy ta’limni va bu sohadagi tadqiqotlarni yo’lga qo’yishni ko’zlab, Buxoro shahrida tashkil etgan ixtisoslashgan musiqa maktabi markaz vazifasini o’taganligi bildirib o’tilgan. Shuningdek, Fitratning bu yo’ldagi faoliyatiga bildirilgan munosabatlarning tahlili berilgan.

“Cho’lpon Buxoroda” (Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2013. Dotsent H.Safarova bilan hamkorlikda) risolasida “Yangi

adabiyotimizning ikki darg'a" (O.Safarov)sining hayoti va ijodiga keng to'xtalib, Fitratning Cho'lpon ong-u shuuriga uyg'otuvchi ta'sir ko'rsatganligini boy faktik materiallar bilan yoritib bergen.

"Buxoroyi sharif" ro'znomasining 1912-yil 29-iyun 94-soni hamda 3-iyul 96-sonida adibning "Faryod" nomli tojik tilida bitilgan 40 misralik she'rini U.Amonov aniqlab, "Buxoroyi sharif " ro'znomasini o'qib..." ("Pedagogik mahorat" jurnali, 2007-yil, 1-son, 49-52-betlar) maqolasida e'lon qilgan edi. Ustoz mazkur she'rni o'zbek tiliga tarjima qilib "Bolaligim qolgan ko'chalar" (She'rlar va dostonlar. Toshkent: "Muharrir" nashritoti, 2010. 47-48-betlar) saylanmasiga e'lon qildi. Shu tariqa Fitratning yana bir she'ri o'quvchilarga yetkazildi.

Xullas, Oxujon Safarov o'zining boy, o'lmas ijodiy merosi bilan xuddi Abdurauf Fitrat singari barkamol avlod tarbiyasi uchun xizmat qila beradi.

ADABIYOTLAR:

- 1.Yoqubov H. Adabiyotshunosligimizning zabardast pioneri / O.Sharifiddinov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1978. – B.9.
- 2.Мирзаев Т. Абдурауф Фитрат // Ҳоди Зариф сұхбатлари. Устозлар, ҳамкорлар ва сафдошлар. – Тошкент: "SHAMS - ASA" МЧЖ босмахонаси. – Б.51.
3. Mirzayev T. Folklor bo`limi //O`zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2003. – 1- son. B.5.
4. Amonov Ulugmurod Sultonovich Новые грани творческого наследия Элбека."Til va adabiyot ta'limi" 2020
5. Sh.R.Safarova Ulug'murod Sultonovich Amonov "Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish:strategiya, innovatsiya va ilg'or tajribalar" 2021/8
- 6.Amonov U.S., Saparova Sh.R The mother tongue textbook of the primary school in An International Multidisciplinary Research Journal Year : 2021, Volume : 11, Issue : 6
7. У.С. Амонов Научный подход а. Фитрата к пословицам Современные тенденции развития науки и ..., 2016
8. U.S Amonov Folklore in the works of abdurauf Fitrat Theoretical & Applied Science, 2016
9. Amonov Ulugmurod Sultanovich Scientific-Theoretical and Practical Directions of Uzbek Folklore of the Twentieth Century European Journal of Life Safety and Stability 2022/2/24

T
e
c
h
n
i
s
c
h
e

M
ü
n
c
h
e
n

Universität

<https://buxdu.uz>